



## ARTICLE INFO

Received: 13<sup>th</sup> December 2022

Accepted: 21<sup>th</sup> December 2022

Online: 23<sup>th</sup> December 2022

## KEY WORDS

*Qabul jarayonlari, davlat imtihoni, o`quv yuklamalari, institut, universitet, talabalar, o`quv semestri, front orti jarayonlari, Maorif xalq komissarligi, o`quv xonalari.*

Ikkinchi jahon urushi yillarida O`zbekiston front orti mamlakati vazifasini bajardi. Bu yer evakuatsiya qilinuvchilar uchun, hujum xavfi mavjud bo`lgan hududlardagi sanoat korxonalarini uchun, ota-onalaridan yetim qolgan yosh bolalar uchun hamda ta`lim muassasalari va uning xodimlari uchun boshpana vazifasini o`tadi.

Shunday tig`iz vaziyatda O`zbekiston SSRda kadrlar tayyorlash masalasi, frontga ketgan professor-o`qituvchilar, xodimlar va talabalar o`rnini yangi kadrlar, ilmiy xodimlar hamda abituriyentlar hisobiga qoplash ham kun tartibiga chiqqan edi. Bu vazifalarni o`z vaqtida ado qilish uchun har bir yangi o`quv yili oldidan maxsus rejalar, bayonotlar qabul qilinib, vaziyat imkoni boricha mo`tdillashtirilib borildi. Xususan, malakali mutaxassislar tayyorlash, front uchun kerakli ilmiy yutuqlarga erishish uchun, qolaversa, ilmiy qatlamning keng kontengentini saqlab qolish uchun kerakli

## IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDA O`ZBEKISTON OLIY O`QUV YURTLARIDA YANGI O`QUV YILINING TASHKILLASHTIRILISHI

**Salomov Ismoil**

Qarshi davlat universiteti doktoranti

Ismoilalomov6661@gmail.com

+998912276661

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7475853>

## ABSTRACT

*Ushbu maqolada urush talablari asosida ilmiy va o`quv-uslubiy hayotni qayta tuzishdagi qiyinchiliklar haqida ma`lumot berishga harakat qilingan. Bundan tashqari o`quv kurslarining umumiy soatlari hamda yillik o`quv yuklamalari haqida ham ma`lumotlar berilgan. O`quv yili davomida urushga jalb qilingan, ma`lum sabablarga ko`ra o`quv semestrini yakunlay olmagan talabalar haqida ham ma`lumotlarni uchratish mumkin.*

choralar ko`rildi. Buni yangi o`quv yili boshlanishi arafasidagi amalga oshirilgan ba`zi bir islohotlar, yangiliklar misolida ko`rsatib o`tish mumkin.

O`zSSR Maorif xalq komissarligining 1942-yilgi qaroriga ko`ra, respublika miqyosida 1942/43-o`quv yili kirish imtihonlari uchun pedagogika va o`qituvchilar tayyorlash muassasalariga qabul o`rinlari taqsimlab berilgan.

Xususan, O`rta Osiyo davlat universitetiga 7 ta yo`nalish bo`yicha 500 ta o`rin ajratilgan. Respublikadagi boshqa kunduzgi pedagogika va o`qituvchilar tayyorlash institutlariga hududlar kesimida 1090 ta o`rin ajratilgan. Jami hisobda kunduzgi pedagogika va o`qituvchilar tayyorlash oliy ta`lim muassasalariga 1590 ta o`rin berilgan.

Respublikadagi jami kechki pedagogika va o`qituvchilar tayyorlash oliy o`quv yurtlari uchun 600 ta o`rin ajratilgan. Ular quyidagi ko`rinishda taqsimlangan:



Toshkentdagi kechki pedagogika institutlariga 210 ta, Samarqand kechki pedagogika institutiga 90 ta, Farg'ona, Buxoro, Andijon, Qo'qon kechki o'qituvchilar institutlariga esa 300 ta o'rin ajratib berilgan. Ushbu ma'lumotlar O'qituvchilar tayyorlash boshqarmasi boshlig'i Gramotovichning hisobotlaridan olingan<sup>1</sup>. Ushbu loyiha SSSR Xalq Komissarlari Soveti huzuridagi Oliy ta'lim bo'yicha Butunittifoq qo'mitasi Qarori (№52, 1942-yil 22-mart, Moskva shahri) bilan tasdiqlangan.

O'zbekiston SSR Maorif xalq komissarligining taklifiga binoan, 1943/1944-o'quv yili uchun quyidagi olimlar davlat imtihoni komissayalari raislari etib tasdiqlangan:

1. O'rta Osiyo davlat universitetidan-prof. I.P Sukervannik
2. Toshkent davlat ayollar pedagogika va o'qituvchilar institutidan- prof. N.L Korjenevskiy
3. Toshkent kechki pedagogika institutidan-prof. Y.P Korovin
4. Samarqand pedagogika va o'qituvchilar institutidan-prof. Faktorovich
5. Farg'ona pedagogika va o'qituvchilar institutidan-prof. P. Azizova
6. Buxoro pedagogika va o'qituvchilar institutidan- dots. R. A. Mallik
7. Andijon o'qituvchilar institutidan-dots. A. Sodiqova
8. Qo'qon o'qituvchilar institutidan-prof. M.I Sovetkin (Manushchin)
9. Urganch o'qituvchilar institutidan-dots. Shtrauf
10. Qoraqalpoq o'qituvchilar institutidan- katta o'qituvchi R. Timasheyeva

Ushbu ishlarni tashkillashtirish SSSR Xalq Komissarlari Soveti huzuridagi Oliy ta'lim bo'yicha Butunittifoq qo'mitasi raisi o'rinbosari P. Zalotuxin zimmasiga yuklangan<sup>2</sup>.

Bundan tashqari, 1943/44-o'quv yilidagi kamchiliklar va yutuqlar, 1944/1945-o'quv yili uchun qabul kvotalarining belgilanishi, kamchiliklarning ko'rib chiqilishi, muammolarni bartaraf etish yo'llari borasida fikrlar almashinilgan yig'ilish o'tkazilganligi borasida arxiv hujjatlarida aniq faktlarga tayanilgan ma'lumotlar bor. Ushbu ma'lumotlar 1944-yilning 21-aprelida bo'lib o'tgan O'zSSR Maorif xalq komissarligining 1943/1944-o'quv yilidagi talabalar qabuli bo'yicha hisobotlarni eshitish va yangi o'quv yilida universitetlar va fakultetlar bo'yicha talabalar qabuli (1944/1945-yillar uchun) ni tasdiqlash bo'yicha o'tkazilgan yig'ilish protokolidan olingan. Bu yig'ilish kun tartibida 2 ta hisobot tinglangan:

1) O'rta Osiyo davlat universitetida qabul rejasi to'liq bajarilmaganligi, ya'ni qabul qilinishi kerak bo'lgan talabalar soni fizika-matematika fakultetida reja bo'yicha amalga oshirilmaganligi ta'kidlanadi. Bundan tashqari, 1943/44-o'quv yilida O'rta Osiyo davlat universitetining birinchi semestri bo'yicha hisobotlariga ko'ra, birinchi kurs talabalari universitetni ko'proq tark etishgan. Foiz hisobida oladigan bo'lsak, umumiy 1-kurs talabalarining 46,5%<sup>3</sup> o'quv jarayonlarida qatnashmaganligini ko'rish mumkin. Bu to'g'ridan-to'g'ri frontga ketish yoki front orti mehnatlariga jalb qilish ishlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

<sup>1</sup> Национальный Архив Узбекистана. Фонд-Р-94, опись-5. Ед. хр. 4099. Ст-12

<sup>2</sup> Национальный Архив Узбекистана. Фонд-Р-94, опись-5. Ед. хр. 4624. Ст-28

<sup>3</sup> НАУ Фонд-Р-94, опись-5. Ед. хр. 4624. Ст-150



2) Aynan shu yig'ilishda O'zSSR Oliy ta'lim qo'mitasining oliy o'quv yurtlarining 1944/45-o'quv yili uchun qabul kvotasi ham tinglangan. Unga ko'ra, O'rta Osiyo davlat universitetining kunduzgi ta'lim yo'nalishlari uchun 420 o'rin (1942/43-o'quv yillariga nisbatan 80 ta o'rin kam ajratilgan), sirtqi ta'lim yo'nalishiga esa 650 o'rin ajratilgan. O'zbekiston davlat universitetining kunduzgi ta'lim yo'nalishlari uchun 180 ta o'rin berilgan.

Asosiy qabul rejalari O'rta Osiyo davlat universitetida yo'nalishlar kesimi bo'yicha quyidagi ko'rinishga ega bo'lgan: Filologiya (60), biologiya (60), geografiya (60), tarix (60), fizika-matematika (60), sharqshunoslik (60), sirtqi ta'lim uchun geografiya (270), tarix (180), fizika-matematika (200) o'rin ajratilgan.

O'zbekiston Davlat universitetida filologiya (60), tarix (60), fizika-matematika (60) kesimida qabul rejalari haqida loyiha e'lon qilingan bo'lib, ushbu takliflar va loyihalar 1944-yil 17-mayda tasdiqlangan<sup>4</sup>.

Shuningdek, oliy o'quv yurtlarining eng muhim vazifasi malakali kadrlar tayyorlash edi. Hukumat va partiya ma'muriyatining asosiy vazifasi talabalar tarkibini saqlab qolishi kerak edi. 1942-yil 5-mayda VKP (b) MQ va SSSR Xalq Komissarlari Kengashi "1942-yilda oliy o'quv yurtlariga qabul qilishning rejasi va oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash choralari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.<sup>5</sup> Bu urush davri sharoitida universitetlar faoliyatini takomillashtirish uchun katta ahamiyatga ega edi. 1942-yilda

universitetga o'qishga qabul qilish - kirish imtihonlarisiz amalga oshirildi, ikkinchi kurs talabalar armiyaga chaqirilishdan ozod qilindi, talabalar va aspirantlar uchun stipendiyalar oshirildi. 1942-yilda urush boshlanganligi sababli besh yillik o'qish davri tiklandi. 1942/43-o'quv yilida universitetga talabalarni jalb qilish rejasi ortiqchasi bilan bajarildi, reja bo'yicha qabul qilinishi kerak bo'lgan 450 o'rniga 490 kishi ro'yxatdan o'tkazildi.

O'rta Osiyo davlat universitetida mahalliy lavozimlarga talabalarni tayyorlash uchun 1943-yilda "Tayyorgarlik bo'limi" ochildi. Universitet partiya tashkilotining 1943-yil 17-noyabrda bo'lib o'tgan hisobot-saylov yig'ilishida universitet partiya byurosi kotibi V.Sergeyevaning hisoboti tinglandi va O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining qarori bo'yicha "O'rta Osiyo davlat universitetida o'zbeklar va boshqa mahalliy millat vakillari uchun 230 kishilik tayyorgarlik bo'limini ochish to'g'risida"gi qaror o'qib eshittirildi. Urush tugaguniga qadar 120 ta talaba universitetning tayyorgarlik bo'limida tahsil olishgan. 1943/44-o'quv yilida universitetda 1938-yildan beri mavjud bo'lgan, ammo urush boshlanishi arafasida tugatilgan sirtqi bo'limni tiklash ishlari olib borildi. Urush tugashi arafasida tarix, matematika, filologiya va geografiya fakultetlarida sirtqi bo'limlar mavjud edi. Uzoq vaqt davomida (1938-1947-yillar) dotsent A.Sh Shokirov sirtqi bo'limga prorektorlik qildi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, yuqoridagi amalga oshirilgan qabul jarayonlari va undan keyingi ishlar urush sodir bo'layotgan bir pallada hamda urush sodir bo'layotgan hududlardagi kadrlarni

<sup>4</sup> НАУ Фонд-Р-94, опись-5. Ед. кр. 4624. ст-198

<sup>5</sup> Мамедова Л.С. Руководство Компартии Узбекистана деятельность интеллигенции в годы Великой Отечественной войны. Автореферат канд. диссертаций. Ташкент, 1971, с.17



ko`chirish<sup>6</sup> amalga oshirilayotgan bir vaqtda amalga oshirilgan. Mutaxassislar tayyorlash va ularni bo`shab qolgan xodimlar o`rniga joylashtirish, talabalar sonining qisqarishiga yo`l qo`ymaslik kabi kechiktirib bo`lmas ishlarni bajarishda katta yutuqlarga erishildi. Bunda oliy o`quv yurtida faoliyat yuritayotgan ilmiy xodimlar va rahbarlarning mehnati yuqoriroq baholanishi lozim. Shunday qilib, Ikkinchi jahon urushi davrida oliy ta`lim muassasalarida kadrlar tayyorlash va ularga zamonaviy bilim berishda, qabul kvotalari va qabul jarayonlarida (vaziyatdan kelib chiqqan holda) ko`zlangan maqsadga erishilgan.

---

<sup>6</sup> Ишанходжаева З.Р. Вторая мировая война и Узбекистан. Материалы международной конференции «Победа над фашизмом в 1945 году: её значение для народов СНГ и мира», Москва, 8-9 апреля 2010 г. – М.; 2011. Ст-236



## References:

1. Национальный Архив Узбекистана, Фонд-Р-94, опись-5. Ед. хр. 4624.
2. Национальный Архив Узбекистана, Фонд-Р-94, опись-5. Ед. хр. 4099
3. Мамедова Л.С. Руководство Компартии Узбекистана деятельностью интеллигенции в годы Великой Отечественной войны. Автореферат канд. диссертаций. Ташкент, 1971
4. Ишанходжаева З.Р. Вторая мировая война и Узбекистан. Материалы международной конференции «Победа над фашизмом в 1945 году: её значение для народов СНГ и мира», Москва, 8-9 апреля 2010 г. – М.; 2010.